SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/2
2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 12/2 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**М У Н Д А Р И Ж А**

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Axmedov Oybek Saparbaevich*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ ..... 10-18

*Нематова Мафтуна*
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН ..... 19-24

*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna*
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI ..... 25-32

*Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi*
“SMILE” VA “TABASSUM” TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ..... 33-38

*Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna*
BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI ..... 39-43

*Jumanova Shahnoza Ikromjonovna*
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O‘RNI ..... 44-50

*Achilov Oybek Rustamovich*
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 51-57

*Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna*
XALQ NASRI JANRLARINING O’ZARO MUNOSABATLARI ..... 58-62

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI ..... 63-68

*Кенжабоев Шокир Абдулхалимович*
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА ..... 69-74

*Fayziyev Bahodir Baxshullayevich*
J. K. ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDAGI TO‘QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI ..... 75-79

*Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi*
OLAMNING O‘ZBEK LISONIY TASVIRIDA “FIDOIYLIK” KATEGORIYASI ..... 80-84

*Тухтаева Фарида Исматуллаевна*
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК ..... 85-90

*Radjabova Dildora Raximovna*
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI ..... 91-96

*Mansurova Shohista Ismailovna*
BADIIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI ..... 97-102

*Ermatov Ixtiyor*
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI ..... 103-108

*Axmedjanova Farida Djavairovna*
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ............................109-114

*Saitov Suxrob Djumaydillayevich*
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN
TRAGEDIES IN THE STORY ..........................................................................................115-119

*Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи*
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....................................................................................120-124

*Toshpoʻlatova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI ..................................................................................125-129

*Абдуманнонов Хожиакбар Акмалжон угли*
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на
примере учебных пособий и словарей узбекского языка) ............................................130-136

*Абдуллаева Раъно Хикматовна*
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА ...............................................................137-144

*Hamidova Sayyora Nurmatovna*
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR...............145-151

*Rustamova Dilrabohon*
ATAMALAR LUGʻATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI ..............................................152-157

*Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna*
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND
ARTISTIC LITERATURE ..................................................................................................158-162

*Farmonov Nurbek Pulatovich*
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH ...........................................163-169

*Xojiyeva Oynisa Shabonovna*
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI ........170-176

*Norqobilov Sanjar Rahmat ugli*
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .......177-182

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .........................................................................183-190

*Xoʻjamqulov Anvar Jozilovich*
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI ................................................191-196

***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманиязова Света Байниязовна*
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ
И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ...........................................................................................197-203

*Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна*
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .............................................................204-209

*Toshkanov Nurbek Bahriddinovich*
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI
HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI ........................................................................210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʼli*
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI ..............217-223

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*
OLIY TA’LIM MUASSALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI ..............224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o‘g'li*
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODIKASI ..............229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*
SPORT-TAYYORGARLIK MASHGʻULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING OʻQUV-MASHGʻULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..............234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*
BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA “YASHIL MAKON” MODULLARI ..............240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon oʻgʻli*
BOʻLAJAK TASVIRIY SAN’AT OʻQITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING QOʻLLANILISHI ..............245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI ..............259-265

*Valieva Xolida*
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI ..............266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*
BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..............272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
TA’LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIMNING OʻRNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ..............278-285

*Mamaraimova Zebo Shafoatovna*
YUQORI SINF OʻQUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI ..............286-290

*Turayev Yolqin Sherzod oʻgʻli*
KATTA MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILIY ASOSLASH KOʻNIKMASINI SHAKLLANTIRISH YOʻLLARI ..............291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*
BOʻLAJAK BOSHLANG’ICH SINF OʻQITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ..............296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*
UMUMIY FIZIKA KURSINI OʻQITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA ..............306-310

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI ..............................311-315

*Xushvaqtov Umar Norqobilovich*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI ..............................316-320

*Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ..............................321-326

*No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi*
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI ..............................327-331

*Xalikov Faroxidin*
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI ..............................332-339

*Abduvaxidov Xusan Abdukulovich*
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ..............................340-345

*Якубова Нафиса Одилжановна*
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..............................346-354

*Karimov Qayum Mamashayevich*
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH ..............................355-360

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..............................361-371

*Касимов Ойбек Омилович*
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ...372-378

*Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich*
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI ..............................379-386

*Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович*
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ..............................387-394

*Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li*
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI ..............................395-400

*Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ..............................401-406

*Khidirova Malakhat Qazakhovna*
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES ....................................................... 407-413

*Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi*
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ....................................................... 414-420

*Achilov Nuriddin Abdugafforovich*
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI ....................................................... 421-426

*Norinov Muxammadyunus Usibjonovich*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI ....................................................... 427-432

*Begimqulov Zarif Axmadovich*
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI ....................................................... 433-438

*Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi*
BO'LAJAK BOShLANG'ICh SINF O'QITUVChILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISh SAMARADORLIGI ....................................................... 439-443

*Jumayev Sirojiddin Zafarovich*
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH ....................................................... 444-449

*Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna*
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ....................................................... 450-457

*Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich*
BOSHLANG`ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ....................................................... 458-463

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 12/2 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00– Педагогика фанлари*

**Turayev Yolqin Sherzod oʻgʻli,**
Qarshi davlat universiteti dotsenti v.b., PhD.

## KATTA MAKTABGACHA TAʼLIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILIY ASOSLASH KOʻNIKMASINI SHAKLLANTIRISH YOʻLLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taklif etilayotgan tarkibiy-funksional modelning amaliyotga samarali tatbiq etilishi katta maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarda ularni tabiat bilan tanishtirish jarayoni daliliy asoslash koʻnikmasini shakllantirish murakkab jarayon ekanligi haqida bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Tabiat bilan tanishtirish, kata maktabgacha taʼlim yoshi, daliliy asoslash, koʻnikmani shakllantirish, muayyan vaqt davomida, muayyan pedagogik tizim doirasida, qoʻyilgan maqsad, pedagogik tarbiyachi.

**Turayev Yolqin Sherzod ogli,**
Associate Professor, Karshi State University, PhD.

## WAYS OF FORMING EVIDENCE-BASED REASONING SKILLS IN CHILDREN OF SENIOR PRESCHOOL AGE

**Annotation.** This article discusses, effective implementation of the proposed structural-functional model in practice, it is stated that the process of introducing them to nature in preschool age children is a complex process of forming evidence-based reasoning skills.

**Key words:** Introduction to nature, preschool age, evidence base, skill formation, for a certain period of time, within the framework of a certain pedagogical system, set goal, pedagogical educator.

**Тураев Ёлқин Шерзод угли,**
И.О. доцент Каршинского
государственного университета, PhD.

## ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЙ АРГУМЕНТИРОВАННОГО РАССУЖДЕНИЯ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются эффективной реализации предложенной структурно-функциональной модели на практике констатируется, что процесс приобщения их к природе у детей дошкольного возраста представляет собой сложный процесс формирования умений аргументированного рассуждения.

**Ключевые слова:** Знакомство с природой, возраст дошкольного образования, доказательная база, формирование навыков, за определенный период времени, в рамках определенной педагогической системы, поставленная цель, педагог-педагог.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N45

**Kirish.** Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi dunyodagi maʼlumotlar miqdori har oʻn yilda ikki baravar koʻpayishiga olib keladi. Zamonaviy odam tobora koʻproq nostandart

muammolarni hal qilish koʻnikmalariga ega boʻlishi, kerakli maʼlumotlarni maqsadli qidirish va tanlashni toʻgʻri bajarishi kerak. Maktabgacha talimning davlat taʼlim standartiga muvofiq, maktabgacha taʼlimni tugatish bosqichida asosiy maqsadlari yoʻlida muzokara olib borishga qodir, boshqa odamlarning qiziqishlari va his-tuygʻularini hisobga oladigan, turli masalalarda oʻz pozitsiyasini ifoda eta oladigan va himoya qila oladigan boladir.

Oʻz navbatida, maktabgacha taʼlimning aksariyat namunaviy umumiy taʼlim dasturlarining mazmuni maktabgacha taʼlim muassasalari oʻqituvchilari uchun quyidagi vazifalarni qoʻyadi:

- bolalarni – boʻlajak maktab oʻquvchilarini – yangi bilimlarni olish uchun tashabbus koʻrsatishga oʻrgatish;

- oʻz nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirish;

- bolalarda mustaqil xulosa chiqarishga oʻrgatish. Ushbu harakatlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalardan izchil nutqni rivojlantirishning yetarli darajasini va oʻz nuqtai nazarini asoslash qobiliyatini talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Argumentatsiya” soʻzi lotincha soʻzlardan (argumentum, arguo) kelib chiqqan boʻʻlib, “tushuntirish”, “dalillash” degan maʼnoni anglatadi. Argumentatsiyani maʼlum bir auditoriyada maʼqullashga qaratilgan bayonotlar tizimi tomonidan taqdim etilgan nuqtai nazarni oqlash yoki rad etishga xizmat qiladigan ijtimoiy, intellektual, ogʻzaki faoliyat sifatida aniqlash mumkin [1]. Dalillashni “fikrlash usuli” boʻlib, uning davomida baʼzi qoidalar isbotlangan tezis sifatida ilgari suriladi; uning tizimliligi foydasiga dalillar va mumkin boʻlgan qarama-qarshi dalillar koʻrib chiqiladi; dalilning asoslari va tezisiga, shuningdek rad etish tezisining asoslariga baho beriladi; antiteziya rad etiladi, tezis isbotlanadi, tezisning haqiqati va antitezisning yolgʻonligiga ishonch hosil qilinadi.

Argumentatsiyada quyidagi komponentlar aniq koʻrinadi:

-tezis, dalillar (dalillar bilan ifodalangan), xulosani oʻz ichiga olgan maʼlum bir tuzilmaning bayonoti yoki matnini yaratishga qaratilgan faoliyat;

-sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va toʻgʻri dalillarni tanlashga qaratilgan aqliy faoliyat;

-birovning eʼtiqodini kuchaytirish yoki zaiflashtirish maqsadida boshqa shaxsga yoki odamlarga qaratilgan ijtimoiy faoliyat.

Bolalarning fikrlash tabiati masalasi uzoq vaqt davomida koʻplab olimlarning asarlarida munozarali boʻlib kelgan.

Tabiat bilan tanishtirish jarayonida katta maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash koʻnikmasini shakllantirish jarayoni, muayyan vaqt davomida va muayyan pedagogik tizim doirasida rivojlanuvchi, qoʻyilgan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan pedagog-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning uyushgan oʻzaro taʼsirini koʻzda tutadi.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning tadqiqotchilikka oid faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishini tabiat bilan tanishtirish jarayonida katta maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash koʻnikmasini shakllantirishning emotsional, motivatsion, mazmunli, operatsional bosqichlari ajratib koʻrsatilgan[9].

Birinchi, emotsional-motivatsion bosqichning maqsadi – maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida daliliy asoslangan nutqning ahamiyatini tushunishni, oʻz fikrlarini izchil bayon qilishning zarurligini, oʻz nuqtai nazarni ishonarli qilib himoya qilishni shakllantirishdan iborat. Mazkur bosqichga maktabgacha

yoshdagi bolalarning muloqot faoliyatining asosini tashkil qilgan motivatsion komponent kiradi. U bolaning daliliy asoslashga qiziqish bildirishi, istagiga, ishontirishning tilga oid shakllaridan, suhbatdosh fikriga qoʻshilish yoki qoʻshilmasligi madaniy shakllaridan foydalanish bilan bogʻliq[2].

Ikkinchi, mazmunli bosqichning maqsadi – bolalarda daliliy asoslangan matnning tuzilishi, uning maʼnoviy qismlarini tilga tegishli vositalar yordamida bogʻlanishi haqida tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Mazkur bosqichda taʼlim faoliyatining asosiy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish davomida daliliy asoslashni amalga oshirishning mumkin boʻlgan usullari haqidagina elementar tasavvurlarni shakllantirish emas, balki quyidagi koʻnikmalarni shakllantirish: mavzunni tushunib yetish, taxmin, faraz keltirish, daliliy asoslangan fikrni bildirish tuzilishiga tezisni kiritish; ilgari surilgan taxminlarni isbotlash uchun dalillarni tanlash; ishontirish uchun dalillarni tanlashni amalga oshirish; dalillangan fikrdan xulosa chiqarish; asosiy taxminga tayangan holda, xulosani taʼriflash; daliliy asoslashga xos boʻlgan nutqqa tegishli bogʻlanish vositalarini tanlashni amalga oshirishni bilish. Katta maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash koʻnikmalarini shakllantirishning asosini maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik bilan bogʻliq faolligi tashkil qiladi, u sezgi aʼzolari orqali, yaʼni sensorli tekshirish, kuzatishlar, tabiatda yoʻnaltiruvchi va sinab koʻrish harakatlari, tajriba-sinovlar, eksperimentlar, evristik muhokamalar va shu kabilar orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi, operatsional bosqichning maqsadi – tabiat bilan tanishish davomida maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni bir butun, bir-biri bilan bogʻliq daliliy asoslash fikrlarni bildirish, ulardan kundalik nutq amaliyotida foydalanishga oʻrgatishdan iborat. Mazkur bosqich maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik hayotda, muammoli vaziyatlarni hal qilishda, tadqiqotchilik va loyihalash amaliyotida daliliy asoslash koʻnikmasini qoʻllash tajribasiga ega boʻlishni nazarda tutadi[10].

Ishning mazkur bosqichlari taʼlim faoliyatining turli shakllarida: bevosita taʼlim faoliyatida, pedagog-tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyatida hamda maktabgacha bolalarning mustaqil faoliyatida amalga oshirilishi mumkin. Mazkur jarayonni amalga oshirishning zarur vosita va usullarini tanlab olish muhim masala hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash koʻnikmasini shakllantirishda katta salohiyatga ega, ekologik tavsifdagi samarali bolalar faoliyati turlaridan biri, nazarimizda, bolalarning tabiatda bilish-tadqiqotchilik faoliyati hisoblanadi. Bolalarning tabiatda amalga oshiriladigan tadqiqotchilik faoliyati, ularning bilish va nutqiy qobiliyatlarini rivojlanishiga taʼsirining samarali ekanligi taʼkidlangan.

Bilish-tadqiqotchilik faoliyati, tuzilishi boʻyicha daliliy asoslangan nutqqa yaqin turadi, yaʼni: bilish vazifasini kattalardan qabul qilish yoki uni mustaqil ilgari surish; uning shartlarini tahlil qilish; hodisa sabablari va bilishga oid vazifani hal qilish haqida taxminlarni ilgari surish; bilishga oid vazifani hal qilish mumkin boʻlgan yoʻllarini tekshirish usullarini tanlash; ilgari surilgan taxminlarni hal qilishning tanlangan usullarini bevosita tekshirish, faoliyat davomida hal qilish yoʻllarini tuzatish-korreksiyalab borish; olingan dalillarni tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish; yangi vazifalar va keyingi izlanishlar istiqbollarini muhokama qilish.

Pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlarida oʻzlashtirilgan tayyor taqdim etiladigan bilimlarga nisbatan mustaqil ega boʻlish bilan birga asoslangan taʼlimning maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishiga taʼsiri isbotlangan. Bunday taʼlimni muvaffaqiyatli

boʻlishining muhim sharti bilishga oid vazifalarni qoʻyish va hal qilish, bolalar turli faoliyatlarida pedagog tomonidan muammoli vaziyatlarni yaratish hisoblanadi. Muammoli vaziyat pedagog tomonidan qoʻyilgan vazifa bolalardan maʼlum dalillarni solishtirish, dastlabki xulosalar chiqarish uchun aqlni ishlatishni talab qilganda yuzaga keladi [P.G. Samorukova]. Bilishga oid vazifa tarkibida, har doim savol turadi, unga baʼzi bolalarga maʼlum va nomaʼlum boʻlgan maʼlumotlar kiradi. Bilmaslik qisman boʻlishi shart, unda bilishga oid vazifani tajriba, kuzatish yoki evristik fikr yuritish yordamida hal qilish mumkin.

Bolalar muammo bilan tanishganidan soʻng pedagog-tarbiyachi rahbarligida uni tahlil qilishi lozim: maʼlum va nomaʼlum narsalarni aniqlash, sabablar va mumkin boʻlgan oqibatlar haqida taxminlar ilgari surilishi kerak. Bolalarning barcha taxminlarini tinglab, pedagog-tarbiyachi ulardagi qarama-qarshiliklarga eʼtibor beradi. Taxminlarni tekshirish usullari sifatida pedagog-tarbiyachi aniqlovchi yoki qiyoslovchi kuzatuv, modellarni namoyish qilish evristik suhbat yoki tajriba-sinovlardan foydalanishi mumkin.

Shuni taʼkidlab oʻtish zarurki, nafaqat muammoli vaziyatlarning, balki tabiiy obyekt yoki hodisani, taxminlar ilgari surish va shaxsiy mulohazalar, soʻzlashuv va baxslarni baholashni elementar ravishda tahlil qilishni talab qiluvchi ziddiyatli vaziyatlarning muhim manbai tabiat hisoblanadi. Bu holda bolaga vaziyatning toʻliq manzarasini tiklash, undagi ziddiyatlarni ajratib koʻrsatish hamda bolaga rasmiy-mantiqiy va dialektik munosabatlarni koʻrsatib berishga tayyor boʻlgan kattalarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda daliliy asoslash koʻnikmalarini shakllantirish uchun tabiatda tabiiy ravishda yuzaga keladigan muammoli-ziddiyatli vaziyatlarni koʻrishga oʻrgatish yoki pedagog-tarbiyachi tomonidan ularni taʼlim jarayonida modellashtirish muhim. Bundan tashqari, bolaga bolalar tomonidan bildirilgan har bir qarshi fikrning haqqoniyligini koʻrishga yordam berish zarur, oʻz fikrlarini asoslab berishni va tengdoshlarini dialektik muammoni yechimining toʻgʻriligiga ishontirishni taklif qilish kerak.

Sayr qilish, tabiatni oʻrganish bilan bogʻliq ekskursiyalarida kuzatilgan tabiat hodisalarini tahlil qilish, ekologik ertakni muhokama qilish yoki tabiatshunoslikka tegishli adabiyotni oʻqish, tabiatda modellashtirish yoki tajriba-sinov oʻtkazish asosini muammoli vaziyat tashkil qilishi mumkin[6].

**Muhokama.** Bolalar tomonidan tajriba-sinov oʻtkazish bilish-tadqiqotchilik faoliyatining alohida shakli boʻlib, unda maqsadning hosil boʻlish jarayonlari, shaxs motivlarining paydo boʻlishi va rivojlanishi, bolalar bilish faolligining namoyon boʻlishi, mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish, yangi hodisani atrofdagi tabiat hodisalari haqidagi umumlashgan tasavvurlar asosida tushuntirib berish kabi koʻnikmalarning shakllanishida yorqin ifodalangan[7].

Mazkur faoliyatda bolalarda narsa-buyumlarni tahlil qilish, ularni qismlarga ajratish, qismlar tarkibiga kirgan detallarni ajratish va ushbu tahlil asosida bir turdagi narsalarni solishtirish, ularning umumiy va farqli tomonlarini taʼkidlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi koʻnikmalar shakllanadi[8].

Argumentni fikrlashdan ajratib turadigan va ushbu turdagi bayonotga aniq maqsad beradigan oxirgi komponent – suhbatdoshni oʻz hukmlariga ishontirish, yosh avlodda argumentativ koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat zamonaviy taʼlim talablariga hissa qoʻshadi, fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish, oʻz nuqtai nazarini ifoda etish va himoya

qilish, nizolarni hal qilish, yangi va qiyin hayot sharoitida harakat qilish qobiliyatiga ega aqlli, faol odamni tarbiyalashni oʻz ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bolalar oʻtkazadigan tajriba-sinovlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida daliliy asoslashning paydo boʻlishiga kuchli motiv boʻlib xizmat qilishi mumkin. Tajriba-sinov oʻtkazish manbai sifatida bolalarning "Yomgʻir nega yogʻadi?", "Nima uchun shamol boʻladi?", "Nima uchun chivin uchganda gʻoʻngʻillagan tovush chiqaradi, qoʻnganda esa jim boʻladi?", "Nimaga pashsha shipdan pastga tushib ketmaydi?" kabi savollari xizmat qilishi mumkin. Birgalikda oʻtkazilgan muhokamada va savollarga javob izlash jarayonida bolalarga tajriba-sinov oʻtkazish taklif qilinadi. Ularning natijalari nafaqat tadqiq qilinayotgan obyekt, uning xususiyatlari, sifatlari haqida yangi ma'lumot olish, balki fikrlash, tahminlar ilgari surish va bolalar farazlarini tasdiqlash uchun sabab boʻladi.

**Xulosa** qilib aytganda, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda dalillash koʻnikmalarini shakllantirishning yuqoridagi uslubiy jihatlarini umumlashtirib, ushbu jarayon bolalarning tabiatdagi kommunikativ va kognitiv-tadqiqot faoliyatiga asoslangan degan xulosaga keldik. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda dalillash koʻnikmalarini shakllantirishning taklif qilingan metodologiyasi bir qator mantiqiy oʻzaro bir–biriga bogʻliq boʻlgan bosqichlarni (motivatsion, mazmunli, operatsion) oʻz ichiga oladi, ularning mazmuni oʻqituvchining tegishli shakllari va usullari tizimi orqali amalga oshiriladi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Djabborova X.J. "Tabiat bilan tanishtirish medodikasi" T.: TDPU 2002 y.
2. Haydarov Q. Nishonova S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish T.: Oʻqituvchi, 1992 y.
3. Joʻrayev N. va boshqalar "Ekalogiya huquqi" T.: Adabiyot jamgʻarmasi, 2001 y.
4. Sodiqova Sh. A." Maktabgacha pedagogika " Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.
5. Toʻxtayev A. Ekalogiya T.: Oʻqituvchi, 1998 y..
6. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish.T.:Oʻqituvchi, 1995y.
7. Grigoryans A.G. "Bogʻchada ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: Oʻqituvchi, 2000 y.
8. Djabborova. X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekalogik ta'lim tarbiya berishning oʻziga xosligi T.: Oʻqituvchi, 2000.
9. Развитие познавателно – исследователских умений у старших дошколников / автори – составители: З.А. Михайлова, Т.И. Бабаева, Л.М. Кларина, З.А. Серова. – СПб. : ООО «ИЗДАТЕЛСТВО «ДЕТСТВО – ПРЕСС», 2012. – 160 с.
10. Лазарев В.С. Системное развитие школи. – М. : Пед. о – во России, 2002. – 304 с.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).